



TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA MAMLAKAT INVESTITSION SALOHIYATINING O'RNI

THE ROLE OF A COUNTRY'S INVESTMENT POTENTIAL IN ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT

**¹Ochilov Bobur
Baxtiyor o'g'li**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Xalqaro moliya" kafedrası
katta o'qituvchisi. **E-mail:** b.ochilov@tsue.uz

Orcid: 0000-0003-3568-5145

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligining o'rni va ahamiyati, qolaversa investitsiyalarni jalb etishdagi mexanizmlar bayon etilgan bo'lib, mazkur mavzuga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada taraqqiy etgan mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichi tahlil qilingan. Xususan, AQSh, Xitoy, Singapur hamda Germaniya mamlakatlarining investitsion pozitsiyasi o'rganilgan. Shu bilan birga, ilg'or xorij tajribalarini tadqiq etish natijasida, O'zbekiston Respublikasining investitsion jozibadorligini oshirish yuzasidan ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.

Eng. - This article discusses the role and significance of a country's investment attractiveness in attracting foreign direct investment, as well as the mechanisms used to attract such investments. It examines the views and opinions of both foreign and local economists on this topic. Additionally, the article analyzes foreign direct investment indicators of developed countries, specifically focusing on the investment positions of the United States, China, Singapore, and Germany. Based on the study of advanced international practices, the article also presents scientific conclusions and recommendations aimed at increasing the investment attractiveness of the Republic of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsion jozibadorlik, xorijiy sarmoya, investitsiya potentsiali, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsiya oqimi.*

❖ *investment attractiveness, foreign investment, investment potential, investment policy, investment environment, investment flow.*

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarda iqtisodiyotning modernizatsiyasi, ayniqsa, faol investitsion siyosat olib borish muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning

samarali tizimini yaratish, shuningdek, ularning investitsion muhiti va salohiyatining jozibadorligini baholashga doir nazariy hamda metodologik asoslarni chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shularni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida [1]gi PF-158-son Farmoni qabul qilingan bo'lib, farmonda 2030-

yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan. Mazkur Farmonning 47-maqsadi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirishdan iborat bo'lib, unga ko'ra mamlakatimizda 250 mlrd. AQSh dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida keng ko'lamlı o'zgarishlar va tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, mamlakatdagi investitsion jarayonlar, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari hamda korxonalarining investitsion faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Qaysi bir rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga nazar tashlamaylik, eng avvalo, investitsiya muhitining barqarorligi va jozibadorligi natijasida xorijiy investitsiyalar oqimi jadallashganini, buning esa iqtisodiy taraqqiyotda ijobiy va barqaror tendensiyalarni yuzaga keltirganini kuzatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

A. Rolikning fikricha, investitsion jozibadorlik potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanishi aytib o'tgan [2].

Iqtisodchi olimlar E. Sojli va W. Thamlarning ta'kidlashicha, investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investor uchun tadbirkorlik xavfi shunchalik past bo'ladi, bu esa o'z navbatida xorijiy investorlarning mamlakatga kirib kelishini jadallashtiradi. Ularning fikricha, investitsion xavfning kamayishi kapital oqimining barqarorligini ta'minlab, iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmini oshiradi. Shu

nuqtai nazardan qaralganda, mamlakatda investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, huquqiy kafolatlar va institutlar barqarorligini ta'minlash, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi. Ayniqsa, investorlar uchun oshkora, barqaror va prognoz qilinadigan siyosiy-iqtisodiy muhitning mavjudligi investitsiyalar hajmi va sifati oshishiga xizmat qiladi [3].

G. Svitlana o'z tadqiqotlarida, investitsion jozibadorlikning oshishi zamonaviy raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o'sishiga yordam beruvchi omil ekanligini, shu asnda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta'siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq bo'lishini isbotlagan [4].

Mahalliy iqtisodchi olim S. Elmirezayevning fikricha, mamlakatdagi kompaniyalar dividend siyosatini belgilashda dividend to'lovlari va reinvestitsiya o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini samarali himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi qiymatini oshirishga erishishi hamda biznes faoliyatini kengaytirishi kompaniyalarning umumiy investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning investitsion jozibadorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5].

N. Jumayevning ta'dqiqotlarida esa investitsion jozibadorlikni ta'minlash va investitsiya salohiyatidan oqilona foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarurligi keltirilgan:

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan mintaqaning imkoniyatlari;

- ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani innovatsion yangilashga yo'naltirilgan investitsiya faoliyatini jadallashtirish;

- mintaqaviy tadqiqotlarning dastlabki bosqichini shakllantirishda diversifikatsiya darajasini oshirish va innovatsion investitsiyalarni jalb etish [6].

Mahalliy iqtisodchi A. Shomirovning ilmiy risolalarida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda aksiyadorlik jamiyatlari qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, qo'shimcha moliyaviy resurslarini joylashtirish muhim sanalishi, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ustuvor maqsad ekanligi, bu borada aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishning eng zamonaviy usullaridan biri IPO mexanizmi ekanligini ta'kidlagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mamlakat investitsion jozibadorligi va uni oshirish bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va risk darajasining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi

ko'rsatkichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini anqilashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiy darajada — ya'ni investorlar bilan davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. U har qanday aniq davrda kapital qo'yish uchun mavjud shart-sharoitlarning obyektiv majmuasini aks ettiruvchi holatdir. Shu bilan birga, investitsiya muhiti bevosita davlat organlarining boshqaruv faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, davlatning investitsiya siyosati ushbu muhitni belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Har bir davlat kapital importini tartibga solishda o'ziga xos kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi. Investitsiya muhiti qanchalik zaif bo'lsa, investor tomonidan qabul qilinadigan risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Mamlakatning investitsion salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni makroiqtisodiy darajada quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (1-jadval).

1-jadval


Mamlakatning investitsion salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar majmuasi [8]

№	Guruh	Ko'rsatkichlar to'plami
I. Mamlakat investitsion salohiyat darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar		
1	Tabiiy-geografik salohiyat	– xom ashyo resurslari: mineral xom ashyolar, yer va suv, yoqilg'i-energetika, turli xildagi ruda va metallar.
2	Ishlab chiqarish salohiyati	– ishlab chiqarish quvvatlari: yalpi hududiy mahsulot (YaHM), asosiy vositalarning holati, ishlab chiqarish omillarining unumdorligi, hududning tarmoqlar va sohalar kesimi bo'yicha ixtisoslashuvi, import va eksportning hajmi.
3	Innovatsion salohiyat	– hududning fan-texnika salohiyati: ilmiy-texnikaviy yutuqlar, fan va ilmiy darajaga ega bo'lganlar, ilmiy-texnikaviy loyihalar hajmi, ilm bilan shug'ullanayotganlar, hududda mavjud bo'lgan ilmiy tekshirish va tajriba-konstruktorlik institutlari/filiallari.
4	Infrastruktura salohiyati	– infrastruktura ta'minoti: hududda mavjud bo'lgan suv va elektr-energiyalarning holati, aeroport, avtomobil va temir yo'llarning mavjudligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanganligi.
5	Moliyaviy salohiyat	– moliyaviy salohiyatning asosiy mezonlari: tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uchun berilgan kreditlar hajmi, aholi tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda bank depozitlariga qo'yilgan mablag'lar hajmi, yuridik shaxslarning banklardagi depozitlari (milliy va xorijiy valyutada) hajmi.

Yuqorida qayd etilgan omillarning ijobiy tarzda uyg'unlashuvi xorijdan investitsiyalarning faol ravishda kirib kelishiga zamin yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining ortishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Eng asosiysi, xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat moliyaviy kapital olib keladilar, balki o'z mamlakatlarida shakllangan ilg'or bilim, texnologiya va boshqaruv tajribasini ham olib kiradilar. Bu esa, mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy

rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida mamlakatlar o'rtasida ko'plab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshishiga guvoh bo'lish mumkin. Jahon banki o'tkazgan tahlillarga ko'ra, mamlakatlar faol tarzda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishmoqda. Xususan, AQSh, Xitoy, Singapur va Germaniya mamlakatlarining TTXIni jalb etish ko'rsatkichlarini tahliliy ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2021-2023-yillarda rivojlangan mamlakatlar tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichi (mlrd. AQSh dollarida) [9]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga ko'ra, AQShning 2021-yilda TTXI hajmi 332 mlrd. AQSh dollari miqdorida bo'lib, pandemiyadan so'nggi iqtisodiy tiklanishning yuqori bosqichini aks ettirganligi, qolaversa, kompaniyalar ishlab chiqarishni kengaytirgani hamda innovatsion texnologiyalarga katta sarmoya kiritilganligi bilan izohlash mumkin. 2022-yilda esa TTXI 206,2 mlrd. AQSh dollariga tushdi. Bunga Federal rezerv tizimining foiz stavkalarini ko'tarilishi va global inflyatsiyaga qarshi kurash siyosati sabab bo'lgan. 2023-yilda AQShda TTXI ko'rsatkichi 148,8 mlrd. AQSh dollariga kamaygan. Bunga sabab tariqasida, AQShning geosiyosiy pozitsiyasi, xususan, Xitoy bilan savdo aloqalarining tarangligi va Ukraina mojarosiga yondashuvi investorlarning

sarmoyadorlik jozibasiga keskin salbiy ta'sir etdi. Shuningdek, AQSh ishlab chiqarishni qayta ichki bozorga yo'naltiruvchi reshoring siyosatini (ya'ni, ilgari arzon ishchi kuchiga ega mamlakatlarga ko'chirilgan ishlab chiqarish quvvatlari yoki xizmatlarni o'z mamlakatiga qaytarishni) amalga oshirdi, bu esa xorijiy investorlarning ishtirokini cheklashga olib keldi.

2021-yilda Xitoy 173,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida TTXI jalb etdi. Bunga ham sabab pandemiyadan keyingi tiklanayotgan ishlab chiqarish sektori hisobiga barqaror bo'lganligi bilan sharhlanadi. 2022-yilda Xitoyda TTXI 189,1 mlrd. AQSh dollariga oshdi. Bunga ta'sir etgan asosiy omillardan biri hukumat tomonidan chet el investorlari uchun ayrim tarmoqlarning ochilishi va infratuzilma

loyihalarining kuchaytirilishi sabab bo'ldi. 2023-yilda esa 163,2 mlrd. AQSh dollariga tushganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda "Zero-COVID" siyosati va g'arb bilan geosiyosiy ziddiyatlar investorlar ishonchini yo'qotib bormoqda. Bundan tashqari, kapital harakatini nazorat qilish va mahalliy firmalarni rag'batlantirish siyosati ham investorlar uchun cheklov sifatida rol o'ynadi.


Shuningdek, 2021-yilda Singapur 131 mlrd. AQSh dollarida TTXIni jalb qildi. Mamlakatning moliyaviy markaz sifatidagi pozitsiyasi va texnologik ekotizimi investorlar potensialini oshirishga xizmat qildi. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 141 mlrd. AQSh dollariga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Asosiy sabab mintaqadagi siyosiy barqarorlik, soliq imtiyozlari va ilg'or raqamli infratuzilma bo'lib, Singapurni sarmoya kiritish uchun qulay hududga aylantirgan. 2023-yilda esa TTXI 131 mlrd. AQSh dollarini tashil etgan bo'lib, bu xalqaro foiz stavkalarining oshishi va kompaniyalar tomonidan investitsiya siyosatlarining qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'liq holat ekanligi qayd etilgan. Biroq, Singapur umumiy hisobda barqaror investitsion muhitni saqlab qolgan, bu esa mamlakatning investitsion muhiti barqaror ekanligidan darak bermoqda.

Germaniyada bo'lsa mazkur ko'rsatkich 2021-yilda 52 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu davrda avtomobilsozlik,

muqobil energiya va sanoat texnologiyalariga investitsiyalar ko'payganligi aniqlangan. 2022-yilda esa 44 mlrd. AQSh dollarini o'zida aks etgan. Bunga sabab Rossiyadan energiya importining qisqarishi va gaz narxining keskin oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini ko'payishiga ta'sir etgan. 2023-yilda esa Ukraina urushi ta'siri, Yevropadagi xavfsizlik tahlikalari va iqtisodiy beqarorlik investorlar uchun xavf omiliga aylanganligi sababli bu ko'rsatkich 37 mlrd. AQSh dollarigas tushgan. Shuningdek, byurokratik tartibotlar, yuqori soliq yuki va mehnat bozoridagi qat'iy qoidalar ham mamlakat investitsion jozibadorligini pasayishiga olib keldi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning siyosiy va ijtimoiy barqarorligi investorlar uchun eng muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, barqaror tashqi siyosat va geosiyosiy xavfsizlik valyuta, bojxona hamda savdo risklarini kamaytirib, hududning mintaqaviy xavfsiz makonga aylanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotganligi hamda butun jahon miqyosida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanayotganligi mamlakat, mintaq va undagi iqtisodiy tarmoqlari, qolaversa, alohida korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda olib borilayotgan investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liqdir.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollarida) [10]

Yuqoridagi 2-rasmda O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2018-yildan 2023-yilgacha mln. AQSH dollarida ifodalangan. 2018-yilda O'zbekistonga 1132,9 mln. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilingan. Bu davr O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy islohotlarni boshlash bilan bog'liq bo'lgan. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan soliq imtiyozlari va investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar xorijiy sarmoyadorlar e'tiborini tortgan. 2019-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi keskin o'sib, 4316,6 mln. dollarga yetgan. Bu o'sish yirik infratuzilma loyihalari, sanoat korxonalarining modernizatsiyasi va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilgan loyihalar bilan izohlanadi. Xususan, energetika va transport sektorlarida xorijiy sarmoya hisobiga ko'plab yangi loyihalar ishga tushirilgan. O'zbekistonda investitsiya qonunchiligining takomillashuvi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi ham sarmoyadorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan. 2020-yilda pandemiya ta'siri tufayli global iqtisodiy inqiroz kuzatilgan bo'lsa-da, O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda barqarorlikni saqlab qolgan. Ushbu yilda investitsiyalar hajmi 2951,7 mln. dollarga yetgan, bu esa kichik, lekin ijobiy o'sishni ko'rsatadi. Pandemiya sharoitida O'zbekiston o'z investitsiya strategiyasini o'zgartirgan holda qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va texnologiya sohalariga xorijiy sarmoya jalb qilishga alohida e'tibor qaratgan.

2021-yilda investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, 2819,1 mln. dollarni tashkil etgan. Bu davrda energetika sohasidagi yirik loyihalar, qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoyalar va sanoat korxonalarining kengayishi kuzatilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar hisobiga yangi texnoparklar, logistika markazlari va ishlab chiqarish korxonalari barpo etilgan. Bu mamlakat iqtisodiyoti diversifikatsiyasi yo'lida

muhim qadam bo'lgan. 2022-yilda O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 3596,9 mln. dollarga yetib, o'sish tendensiyasi davom etgan. Shuningdek, energetika, kimyo sanoati va qurilish sohalariga yitik miqdorda investitsiyalar yo'naltirilgan. Xalqaro moliya institutlari va investorlar bilan hamkorlik yanada kengaygan. Bu esa O'zbekistonning global bozorlar bilan iqtisodiy integratsiyasini yanada kuchaytirgan.

2023-yilda esa O'zbekistonda o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi rekord darajaga yetib, 7738,3 mln. dollarni tashkil etgan. Bu natija mamlakatda investitsiya muhitining keskin yaxshilangani, sarmoyadorlarga berilgan kafolatlar va ishonchning ortgani bilan izohlanadi. Energetika, avtomobilsozlik, elektrotexnika va qishloq xo'jaligi kabi sektorlar asosiy sarmoya yo'nalishlari bo'lgan.

Shuningdek, transport infratuzilmasi, jumladan, avtomobil yo'llari va temir yo'l loyihalari xorijiy sarmoyadorlarning e'tiborini tortmoqda. Yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo'lib, bu mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Energetika sohasida gaz va elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish strategiyasi investitsiyalarning muhim yo'nalishiga aylangan. O'zbekistonning yirik investitsiya hamkorlari sifatida Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari yetakchi o'rinlarni egallaydi. Ushbu mamlakatlarning investitsiya loyihalari O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni to'liqligicha o'zlashtirish mamlakatda aholi bandligi va turmush darajasining o'sishiga, aholi daromadlilikini yaxshilashga, xalqaro maydonda mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashishda davlatning o'rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning tafovutlarsiz taraqqiy etishiga xizmat qiladigan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish choralarni ko'rish;

2. Yuqori texnologiyalarga asoslangan va qo'shimcha qiymat yaratadigan qo'shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes-muhitini yaratish;

3. Iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur;

4. Investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsion faoliyatni rag'batlantirish kerak;

5. Raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish yaqin kelajakda o'z samarasini beradi. Shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.

2. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, Volume 99, 6 November

3. Elvira Sojli, Wing Wah Tham, "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In *Institutional Investors in Global Capital Markets*. Published online: 8 March 2015; 207-243.

4. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// *Baltic Journal of Economic Studies*, vol. 5, № 3, 2019. – P.9;

5. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va dividend aristokratlari.// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11.

6. Nodir Jumaev. "Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions" *International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom* Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664.

7. Aziz Shomirov. "The role of ipo mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects", *International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19*.

8. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya T., 2017-yil, 67-68 betlar.

9. <https://data.worldbank.org> – Jahon bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

10. <https://stat.uz/uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.